

ISLOM DININING PAYDO BO'ISH TARIXI

Mamadaliyeva Irodaxon

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Namangan filiali “Tarix” yo’nalishi

birinchi bosqich talabasi

mamadaliyevairoda015@gmail.com

Annotatsiya: Islomdan oldingi Arabiston (Johiliyat davri) Islom dini paydo bo’lishidan oldin Arabiston yarimorolida “Johiliyat davri” hukm surgan. Bu davrda jaholat, ya’ni ilm- fan va ma’naviyatdan uzoqlik bilan tavsiflanadi. Arab qabilalari ko’p xudolikka (butparastlikka) e’tiqod qilgan. Har bir qabillar o’z buti bo’lib ular asosan Ka’ba atrofida joylashgan edi.

Jamiyatda adolatsizlik keng tarqalgan edi. Ayollar huquqlari poymol qilingan hatto qiz bolarni tiriklayin ko’rish odati ham mavjud bo’lgan. Qon to’kilishi, o’zaro urushlar, qasos olish odati keng yoyilgan edi. Boy kambag’allarni ezgan, yetimlar va miskinlar himoyasiz qolgan. Shu sababdan jamiyatda yangi, adolatli va yagona Hudoga asoslangan din zarurati kuchli sezilayotgan edi.

Kalit so’zlar: Islom dining paydo bo’lishi va yoyilishi, VII asr, Muhammad (s.a.v.) tarixlari, bobolari, Hiro g’ori, bobolari Abdumutalib, onalari Omina, otalari Abdulloh, to’rt halifa tarixi, islom dining halifalar yordamida yoyilishi, 570-yil, sulola Ummaviylar davri, Abbosiylar davri, 622-yil, Suriya, Misr, Eron, Qur’oni Karim.

Islom dunyosida oxirgi payg’ambar Muhammad (s.a.v.) 570-yilda Makkada shahrida dunyoga keldilar. Quraysh qabilasining obro’li ayollaridan Omina onamiz, Otalari Abdulloh, bobolari Abdumutalib edilar. Payg’ambarimiz ona qornidaliglarida otalari Abdulloh vafot etganlar, 6 yoshlarida onalari Omina onamizdan ajralganlar bobolar Abdumutalib tarbiyasida voyaga yetib komil inson bo’lib yetishganlar.

Halolliklari rostgoyliklari sabab “Al-Amin” (ishonchli inson) deb tanilganlar. 40 yoshga yetganlarida Alloh tomonidan vahiy kela boshlaydi. Makka shahri yaqinidagi “Hiro” g’orida ibodat qilib yurgan paytlarida birinchi vahiy nozil bo’lgan. Bu vahiy orqali Alloh taolo u zotni payg’ambar deb buyurdi. Qur’oni Karimda birinchi oyatda “Iqro” (o’qi) so’zi bilan boshlandi. Shundan so’ng Muhammad (s.a.v.) odamlarni yagona Allohga iymon keltirishga chaqira boshladi. Dastlab Islomning yaqin kishilri qabul qildi.

Keyinchalik ochiq da’vat boshlandi. Islomning keng yoyilishi to’rt halifa davrida avj oldi. Abu Bakr Siddiq davrida Arabiston Ichida birlik mustahkamlandi. Umar ibn Xattob davrida Islom dini Suriya, Misr, Eron, hududlarigacha yoyildi. Ali ibn Abu Tolib davrida ichki nizolar bo’lsada, Islomning asoslari mustahkamlandi.

Usmon ibn Affon davrida Qur’on nusxalari ko’paytirildi va yagona shaklga keltirilgan. Keyinchalik Ummaviylar va Abbosiylar davrida Islom hududi yanada kengaytirib, Ispaniyadan tortib Hindistongacha yetib bordi. Islom dini tez orada tarqala boshladi, ammo bu jarayon oson kechmadi. Makka mushriklari yangi dinni qabul qilishni istamadilar, chunki bu ularning manfaatlariga zid edi. Ular musulmonlarni kamsitdi, qiynoqqa soldi va taqib qildi. Shunga qaramay, Islom dini asta-sekin yoyildi. Ba’zi musulmonlar zulmdan qutulish uchun Habashistonga hijrat qildilar. Eng muhim voqealardan biri esa 622-yilda Makka shahridan Madinaga hijrat bo’ldi. Bu voqea Islom tarixida yangi davr boshlanishiga sabab bo’ldi. Madinada Islom davlati shakllandi va din yanada mustahkamlandi. Keyinchalik Makka ham fath etilib Islom dini yana mustahkamlandi.

Xulosa: Islomning eng muqaddas kitobi manbasi Qur’oni Karim asrlar davomida o’zgarmasdan saqlanib kelinmoqda. Uni yod olish (hofizlar), o’rganish va boshqalarga yetkazish musulmonlar uchun eng ulug’ ammalardan biri hisoblanadi. Madrasalar va islomiy ilm markazlarida diniy bilimlar avloddan-avlodga o’tib kelmoqda.

Musulmonlarning so’ngi payg’ambari Muhammad (s.a.v.)ni juda katta ehtirom bilan eslashadi. U zotning hayoti, axloqi sunnatlari har bir musulmon uchun ibrat hisoblanadi.

Mavludlar o'qish savolat aytish orqali u zotni ulug'lashadi. Islomning besh ustuni - shahodat, namoz, ro'za, zakod va haj– musulmonlarning kundalik hayotida muhim o'rin tutadi.

Ramazon hayiti, Qurbonlik hayiti kabi bayramlarni katta tantana bilan nishonlanadi.

Haj ibodati orqali musulmonlar Ka'ba ni ziyorat qiladilar. Islom dini og'ir sharoitda paydo bo'lib qisqa vaqt ichida katta hududlarga yoyiladi. U insoniyatga yagona Allohga e'tiqod qilish, adolat, mehr–shavqat va tenglik g'oyalarini olib keldi. Bugungi kunda Islom dunyodagi eng yirik dinlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) Qur'oni Karimdan
- 2) Hadislar to'plami (Imom Buroriy)
- 3) Ar – Rahimul Maxtum - Safiur Rahman
- 4) Payg'ambarlar tarixi kitobidan
- 5) Islom tarixi (darsliklari va qo'llanmalari asosida)